

## Mahalla-bugun va kelajakni tutashturuvchi maskan

«Mahalla» atamasining kelib chiqishi ham uzoq tarixga borib taqaladi va u arabcha soʻz boʻlib oʻzbek tilidagi «joy» maʼnosini bildiruvchi «mahallun» soʻzidan kelib chiqqan. U turli mintaqalarda mahallot (joy), guzar, jamoa, elat, elod nomlarida atalib kelingan. Ammo mahalla nafaqat tarix, balki bugungi va ertangi kunimizni ham tutashtirib turuvchi maskan hisoblanadi. Toshkent irrigatsiya va qishloq xoʻjaligini mexanizatsiyalash muhandislari instituti “Qishloq va suv xoʻjaligi energiya taʼminoti” fakulteti Toshkent shahar, Mirzo Ulugʻbek tumani,



“Mirzakalon Ismoilij” mahallasi bilan hamkorlikni rivojlantirish maqsadida mahalla yoshlari sport toʻgaraklaridan unumli foydalanib kelmoqda. Yoshlarning sport musobaqalariga keng jalb qilinishi natijasida voyaga yetmaganlar oʻrtasida huquqbuzarlik hamda jinoyatchilik kabi holatlar keskin kamayishiga olib keladi. Shu bilan birga mahalla milliylikimiz timsoli hamda qadryatlar va urf-odatlarini avloddan avlodga yetkazuvchi ijtimoiy makon sifatida, oʻzligimizni anglashga, milliy gʻurur va vataparvarlikni yuksaltirishga xizmat qiladi. Mahallaning nufuzini oshirish nafaqat iqtisodiy-ijtimoiy, balki tarbiyaviy va ulkan maʼnaviy masala ekanligi ustuvor vazifa sifatida belgilanib, uning fuqarolik jamiyatini rivojlantirishning ishonchli tayanchi hamda taʼsirchan kuchi boʻlib xizmat qilishiga zarur shart-sharoitlar yaratib kelinmoqda.



**“Qishloq va suv xoʻjaligi  
energiya taʼminoti ” fakultetining Yoshlar  
bilan ishlash dekan oʻrinbosari O.Habibullaev  
TIQXMMI matbuot xizmati**